

Typological Features Of Structural-Functional And Combinatorial Signs Of Syntactic Units (In English, Korean And Uzbekistan Language Materials)

Turayev Jasurbek Qakhorovich

Researcher, Uzbek State University of World Languages

Abstract

In linguistics, the main task of syntax is the study of grammatical, semantic, and communicative aspects at the level of word combinations, sentences, and texts. In the study of syntactic units, structural-functional and combinatorial features play an important role. Their typological analysis helps to identify both the common and distinctive characteristics of language systems belonging to different language families — English (Germanic family), Korean (Altaic group), and Uzbek (Turkic family). The purpose of this article is to provide a comparative-typological analysis of the structural-functional and combinatorial features of syntactic units in English, Korean, and Uzbek.

Tilshunoslikda sintaksisning asosiy vazifasi – soʻz birikmalari, gap va matn darajasida grammatik, semantik hamda kommunikativ jihatlarni oʻrganishdir. Sintaktik birliklarni oʻrganishda strukturaviy-funksional va kombinatorik belgilar muhim oʻrin tutadi. Ularning tipologik tahlili turli til oilalariga mansub tillar – ingliz (german tillar oilasi), koreys (altay tillari guruhiga oid), va oʻzbek (turkiy tillar oilasi) til tizimlarining umumiy va farqli jihatlarni aniqlashga yordam beradi. Mazkur maqolaning maqsadi – ingliz, koreys va oʻzbek tillarida sintaktik birliklarning strukturaviy-funksional va kombinatorik belgilarini qiyosiy-tipologik tahlil qilishdir.

Strukturaviy belgilar – sintaktik birliklarning shakliy qurilishi (soʻz tartibi, qoʻshimchalar, bogʻlovchilar). Funksional belgilar – sintaktik birliklarning kommunikativ vazifalari (xabar berish, soʻroq, buyruq, murojaat). Strukturaviy belgilar sintaktik birliklarning shakliy qurilishini ifodalaydi. Ular orqali gap va soʻz birikmalari qanday tashkil topgani aniqlanadi. Gapdagi soʻzlarning joylashishi. Masalan: Ingliz tilida qatʼiy SVO (Subject-Verb-Object) tartibi: She reads a book. Koreys va oʻzbek tillarida SOV (Subject-Object-Verb): U kitob oʻqiydi / 그녀는 책을 읽는다.

Qoʻshimchalar: agglutinatив tillarda (oʻzbek, koreys) sintaktik munosabatlarni ifodalovchi asosiy vosita. Masalan, oʻzbek tilida “kitobni”, koreys tilida “책을”. Bogʻlovchilar: gaplar va soʻzlarni bogʻlash uchun ishlatiladigan vositalar. Ingliz tilida and, but, because; oʻzbek tilida va, ammo, chunki; koreys tilida 그리고, 하지만, 그래서.

Kombinatorika tilshunoslikda soʻzlarning birikish imkoniyatlarini, yaʼni qanday kombinatsiyalarda ishlashini oʻrganadi. Bu valentlig nazariyasi bilan bogʻliq boʻlib, feʼning argumentlari va gapning boshqa elementlari orasidagi munosabatni koʻrsatadi.

Tipologik tahlil turli tillarda bir xil sintaktik hodisalarning qanday shakllanishini qiyoslashni koʻzda tutadi. Maqsad – umumiy universal qonuniyatlar va milliy xususiyatlarni aniqlashdir.

Ingliz tilida strukturaviy belgi sifatida qatʼiy SVO (Subject-Verb-Object) tartibi namoyon boʻladi. Funksional jihatdan esa gapning maqsadga koʻra turlari (declarative, interrogative, imperative, exclamatory) asosiy rolni bajaradi. Kombinatorik jihatdan ingliz tili predloglarga boy boʻlib, ular soʻzlar orasidagi bogʻlanishni belgilaydi.

Misol: He gave a book to his friend. (S-V-O-O)

Koreys tilida sintaktik birliklarning strukturaviy-funksional va kombinatorik belgilar. Koreys tili SOV (Subject-Object-Verb) tartibiga asoslanadi. Gap tuzilishida partikulyar qo'shimchalar (-이/가, -을/를, -

은/는) sintaktik munosabatlarni ifodalaydi.

Funksional jihatdan koreys tili ijtimoiy pragmatik omillarga juda boy: hurmat shakllari, ijtimoiy vaziyat gap tuzilishiga ta'sir qiladi. Kombinatorik belgilar fe'l valentligi orqali aniqlanadi.

Misol: 저는 친구에게 책을 주었습니다 (Men do'stinga kitob berdim).

O'zbek tilida sintaktik birliklarning strukturaviy-funksional va kombinatorik belgilar. O'zbek tili ham asosan SOV tartibiga asoslanadi, biroq unda erkin so'z tartibi mavjud. Qo'shimchalar sintaktik munosabatlarni ko'rsatishda asosiy vosita hisoblanadi. Funksional jihatdan esa gapning maqsadga ko'ra turlari va nutqdagi pragmatik urg'u muhim ahamiyatga ega. Kombinatorik jihatdan fe'lning valentligi asosida so'zlar birikadi va kontekstga qarab so'z tartibi o'zgaradi.

Misol: Men do'stinga kitob berdim ↔ Kitobni men do'stinga berdim.

Qiyosiy-tipologik tahlil

Quyidagi jadval ingliz, koreys va o'zbek tillarining sintaktik birliklarini qiyoslaydi:

Til	Strukturaviy belgi	Funksional belgi	Kombinatorik belgi
Ingliz	Qat'iy SVO	Gap turlari (declarative, interrogative)	Predloglar va so'z tartibi
Koreys	SOV, partikulyar tizim	Hurmat shakllari va ijtimoiy vaziyat	Fe'l valentligi va partikulyar

			qo'shimchalar
O'zbek	SOV, erkin so'z tartibi	Pragmatik urg'u, gap turlari	Qo'shimchalar va erkin kombinatsiya

6. Xulosa

Ingliz tilida strukturaviy qat'iylik kuchli, funksional jihatdan esa so'z tartibi va intonatsiya asosiy rolni o'ynaydi. Koreys tilida partikulyar tizim va ijtimoiy-pragmatik omillar muhim. O'zbek tilida esa erkin so'z tartibi va qo'shimchalar sintaktik moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Mazkur tahlil natijalari til o'qitish metodikasi, tarjima nazariyasi va madaniyatlararo kommunikatsiyada qo'llanishi mumkin.

Funksional belgilar tilning kommunikativ vazifasini amalga oshiradi va sintaktik birliklarni maqsadga muvofiq qo'llash imkoniyatini beradi.

Adabiyotlar

- Chomsky N. Syntactic Structures. The Hague: Mouton, 1957.
- Hymes D. On Communicative Competence. Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1972.
- Lee Iksop. Korean Syntax and Semantics. Seoul: Seoul National University Press, 2000.
- Jo'rayev M. O'zbek tilining sintaksisi. Toshkent: O'qituvchi, 2010.
- Richards J., Rodgers T. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press, 2014.